

INNOVATSION TAFAKKURNING FALSAFIY, PSIXOLOGOK VA DIDAKTIK MOHIYATI.



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14544678>

Ziyatova Barno Baxodirovna

“Alfraganus University” nodavlat oliy ta’lim muassasasi
Xorijiy filologiya kafedrası katta o’qituvchisi.

Annotatsiya: Innovatsion tafakkurning shakllanishida inson xulq-atvori va uning motivatsiyasi ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki, mavjud bilimlarni amaliyotga tatbiq etish murakkab jarayondir. Jamiyat a’zolari yangi bilimlar, falsafiy, texnologiyalar va metodlarni qabul qilishi murakkab kechadi va bu o’z o’zidan innovatsiyaion tafakkur subyektlariga kuchli ruhiy bosimni vujudga keltiradi. Maqolada innovatsion tafakkurning shakllanishiga ta’sir ko’rsatadigan ruhiy omillar xamda didaktik jarayonda innovatsion tafakkurning namoyon bo’lishi o’rganildi.

Tayanch so’zlar: didaktik jarayon, innovatsion tafakkur, tafakkurning ruhiy jihatlari, pedagog, falsafa, pedagogik jarayon, xulq-atvor, kompetensiyalar.

Jamiyat o’z madaniy darajasi, ahloq me’yorlari va boshqa omillardan kelib chiqib innovatsiyalarni rag’batlantiradi yoki e’tiborsiz qoldiradi, ba’zan esa unga qarshi chiqishi ham mumkin. Shunday ekan innovatsion tafakkurning ruhiy jihatlari ham chuqur tahlil qilish zarur bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasining Oliy ta’lim standartlarida “tanlov fanlari bloki bakalavriat yo’nalishi bo’yicha ta’lim oluvchilar qo’shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko’nikmalarni o’zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengayishini ta’minlashi, ta’lim trayektoriyalariga muvofiq kasbiy bilim va malakalarni o’zlashtirishga imkon yaratishi lozim,” ekanligi qayd etib o’tilgan. Mamlakatimizda ta’lim sohasining asosiy funksiyalarini belgilab beradigan hujjatida innovatsion usullar orqali kasbiy kompetensiyalarni kengaytirish vazifasi qo’yilganligi, ta’lim subyektlaridan ijtimoiy to’siqlarga qaramasdan yangiliklarni o’zlashtirish va tarqatishi zarurligini anglatadi.

Innovatsion xulq-atvor masalalarini tadqiq etgan G.A.Sukermanning fikricha: “bir butun tizimni ko’ra olish va uning elementlari o’rtasidagi aloqadorlini payqagan holda tizimli fikrlash” innovatsion pedagogik jarayonning muhim atributidir. Bu esa sinchkovlik va tahliliy qobiliyatlarni rivojlanganligi bilan bog’liq kechadigan jarayondir.

Ayrim olimlarning fikricha bu jarayonda o‘z o‘zini boshqarish muhim psixologik xislat hisoblanadi. Bu nimada namoyon bo‘ladi? Bu innovatsion tafakkur subyektining umumiy, qoidaga aylanagan an‘analari deb ataladigan vaqt sinovidan o‘tgan metodikaga emas, har bir vaziyatning alohida jarayon sifatida ko‘ra olish hisobiga shakllangan subyektiv tajribaga tayanishdir. Bizning fikrimizcha, o‘zini o‘zi boshqarish va qaror qabul qilish jarayoni quyidagi elementlardan tarkib topgan. Mavjud muammoli vaziyatni modellashtirilgan shaklining inson tafakkurida bus-butunligicha aks etishi, o‘z hatti harakatlarini amalga oshirish bo‘yicha ma‘lum bir harakatlar strategiyasining mavjud ekanligi, ish muvaffaqiyatli bajarildi deb atalishi uchun kerak bo‘lgan o‘lchov barometrlarining ishlab chiqilganligi yoki bu haqida tasavvur shakllanganligi, qo‘lga kiritiladigan natijalarni mustaqil ravishda baholash va keyinchalik o‘z hatti harakatlariga tuzatish kiritish orqali ish samaradorligini oshirish yo‘llarini bilishdan iborat.

Bir qator tadqiqotchilar tomonidan innovatsion tafakkurning shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatadigan ruhiy omillar ham aniqlangan:

1) yuqori darajadagi natija uchun harakatning mavjud emasligi; ijodkorlik qobiliyatining yo‘qligi; psixologiya sohasidagi yangi bilimlarga qiziqishning yo‘qligi; yangi pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tabiiq etishga qiziqishning yo‘qligi;

2) ruhiy: o‘z o‘zini takomillashtirishga harakatning yo‘qligi; o‘z faoliyatini refleksatsiya qilishga qobiliyatining yo‘qligi; pedagogik innovatika qiziqishning yo‘qligi;

3) ijtimoiy: ish haqining kamchiligi; jamiyatning ta‘limga (mehnat sharoitiga va boshqalarga) e‘tiborsizligi; kasbiy o‘qish uchun imkoniyatning yo‘qligi.

Yuqoridagi sanab o‘tilganlarning aksariyati pedagogning shaxsiy-hissiyotlari bilan bog‘liqdir.

O‘zbekistonda oliy ta‘lim muassasalaridagi mehnat jamoalarida sog‘lom ruhiy muhit yaratilishi uchun juda katta imkoniyat mavjud. 2016-yilga qadar oliy ta‘lim bilan qamrov 8 foizni tashkil qilib, amalda oliy ta‘lim muassasalari rivojlanmasdan qolib ketgan bo‘lsa, endilikda qamrov 45 foizga yetib universitet va institutlar soni 4 barobarga ko‘paydi. Nodavlat oliy ta‘lim muassasalari tarmog‘i kengaymoqda. Bu esa o‘z o‘zidan pedagoglarga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirib, ularning moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirilishiga hamda jamoalarda ijodkorlik muhitini yaratilishga olib kelmoqda. Endilikda oliy ta‘lim muassasalari reytingida munosib o‘rin olish uchun universitetlar pedagoglarning rivojlanishi uchun ko‘proq mablag‘lar ajratishi va ularga yangi-yangi sharoitlar yaratib berishi kerak. Olib borilgan tahlillar va kuzatishlarimizga qaraganda Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi doirasida O‘zbekistondagi oliy ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilarga eng ko‘p ish haqi

to‘lamoqda. Ayrim hollarda farq uch barobargacha yetadi. Bu esa pedagoglarning innovatsion tafakkur tarziga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan muhim omildir.


O‘zbekistonda pedagoglar o‘rtasidagi raqobatni vujudga keltirishda ishga qabul qilish va ularning mehnat faoliyati natijalarini samaradorligini baholash metodikasi ham muhim rol o‘ynadi. O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 10-fevraldagi 20-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalariga pedagog xodimlarni tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risida”gi NIZOM bilan aksariyat oliy o‘quv yurtlariga ishga qabul qilish bilan bog‘liq qoidalar amaliyotga kiritilgan. Ushbu nizomdagi aksariyat tamoyillar uzoq yillardan buyon o‘zgarmay keladi va oliy ta’lim muassasalarining o‘ziga xosligi bilan bog‘liq talablarga javob bermaydi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, institut va universitetlarda innovatsion xulq-atvor bilan bog‘liq kompetensiyalarning shakllanishi qiyin kechadi. Ijtimoiy davlat taomiyillaridan kelib chiqib barcha oliy o‘quv yurtlari uchun yagona va tushunarli bo‘lgan ishga qabul qilish tartiblarining ishlab chiqilgani ijobiy ekanligini qayd etgan holda uning raqobat muhitini yaratish bilan bog‘liq masalalarga to‘sqinlik qilishni ham qayd etib o‘tish lozim. Bizning fikrimizcha, har bir oliy ta’lim muassasalari kengashlari qarori bilan ishga qabul qilish va pedagoglarning mehnatiga bahor berish metodikasini ishlab chiqishi va tasdiqlashi maqsadga muvofiqdir.

Innovatsion xulq-atvorni shakllanishi bilan bog‘liq masalalarda muhim dilemma paydo bo‘ladi. Har bir pedagog o‘zini o‘tishi lozim bo‘lgan fanga oid dasturlarni musaqil shakllantirgani ma’qulmi yoki bunday hujjatlar umumiy bo‘lishi kerakmi. Pedagogning individual yondashuvi fanni o‘zlashtirish bilan bog‘liq samaradorlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatsa, umumiy xususiyatga ega bo‘lgan dasturlarning mavjudligi malaka talablariga muvofiq talabalarda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga imkon beradi. Shu bilan birgalikda har ikki holatda ma’lum bir o‘ziga xos kamchiliklar bo‘ladi. Innovatsion tafakkur tarzini shakllantirishni ko‘zlagan kafedra mudiri yoki ta’lim muassasa rahbariyati oltin o‘rtaliqni topa olishi kerak bo‘ladi.

Innovatsion xulq-atvorning shakllanishida jamoaviy muhit, o‘z-o‘zini takomillashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z o‘zini takomillashtirish bizning fikrimizcha to‘rt yo‘nalishda bo‘lishi kerak. Intellektual jihatdan o‘sib-ulg‘ayish; ruhiy salomatlikni barqaror saqlash yo‘llarini topish; oilada, jamoada va talabalar bilan munosabatlarni rivojlantirish yo‘llarini aniqlash; jismoniy barkamol bo‘lish uchun harakat qilishdan iborat tizimli ishlardir. Innovatsion tafakkur tarzini shakllantirishning eng muhim yo‘nalishi ham o‘z o‘zini takomillashtirishdir. Bu orqali inson avvlambor o‘zidagi to‘rt yo‘nalishdagi kamchiliklarni tan olishi va ularni baratarf etish uchun aqliy va ruhiy salohiyatini ishga sola biliadi. Ana undan keyingina atrofdagi jarayonlarga tanqidiy nigoh bilan,

jamoaning mushtarak maqsadlari yo‘lida qaray oladi. Shuning uchun ham innovatsion xulq-atvorning markazida insonning o‘zini anglashi, tushunishi va baholashi yotadi.

Innovatsion tafakkurni didaktik mohiyati juda keng qamrovli bo‘lib, tadqiqot ishini maqsadi ham mana shu jarayonni samaradorligini oshirishga qaratilgandir. Didaktik jarayon juda ko‘p qirrali va murakkab bo‘lib, uni amalga oshirishning eng muhim sharti subyektda innovatsion tafakkurning mavjud bo‘lishidir. Bizning fikrimizcha didaktik jarayonni tashkil qilishning eng muhim jihatlarni quyidagicha ifodalash mumkin.



1-rasm. Didaktik jarayonda innovatsion tafakkurning namoyon bo‘lishi.

Ijodkorlik pedagog faoliyatining eng muhim shaklidir. Ijod jamiyatda shu vaqatga qadar ma‘lum bo‘lmagan narsalarni taqdim qila olish qobiliyatidir. Har bir bir dars va uning metodik ta‘minoti pedagog ijod mahsuli bo‘lishi kerak. Biror bir darslik, qo‘llanma yoki uslubiy tavsiya mavzuni o‘zlashtirish jarayonida ijodi yondashuvchalik samarali emas. Chunki, bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni subyektiv xususiyatga ega bo‘lib, avvalambor pedagogning o‘zi uni biryoqlama qabul qilish tabiiy hol. Chunki, pedagog bilimlarning yaratuvchisi emas, balki uning tashuvchisidir. U tomonidan qabul qilingan va yetkazib berilishi mo‘ljallangan ma‘lumotlar hajmi uning subyektiv dunyoqarashidan kelib chiqib ma‘lum bir o‘zgarishlarga uchrashi tabiiy hol. Bu o‘rinda pedagog faqat metodik jihatdan o‘z yo‘liga ega bo‘lishi mumkin, bilimning mazmuniga daxl qilishi joiz emas, deb hisoblash bir bir jihatdan to‘g‘ri bo‘lsada, amalda buni imkoni yo‘qdir. Bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion kompetentligi masalalri bilan shug‘ullangan olim B.Djalalovning fikricha: “Innovatsion ta‘lim nazariyasining yaratilishi to‘g‘risida

ma'lumot beruvchi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar ta'lim tizimini texnologiyalashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ijtimoiylashuvini ta'minlash, ta'lim jarayonida bolaga do'stona munosabatni shakllantirishga urinish natijasida vujudga keldi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida pedagogik faoliyat bu-ijodiy jarayon va pedagogik innovatsiyalar birlashmasi, degan yangi ilmiy yo'nalish tarkib topdi. Bu o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatining shakllanish jarayonini tahlil qilish imkonini berdi. " Bu boradagi tadqiqotlarda ijodkorlikning pedagogik faoliyatni asosi sifatida qabul qilinayotganini yuqoridagi iqtibosda ham ko'rinib turibdi.

Tanqidiy tafakkur didaktik jarayonni muhim yo'nalishi bo'lib, u orqali jarayonda erishiladigan natijaning samaradorligini oshirish imkoniyati mavjuddir. Chunki, didaktik jarayonga ta'sir ko'rsatuvchi omillar juda ko'p bo'lib, bular avvalambor o'qituvchining tayyorgarlik darajasi, ikkinchidan esa talabalarning saviyasi, shuning o'quv mashg'ulotlari jarayonidagi axborot makonidagi vaziyat kabi omillar tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов И. Замонавий ёшлар дунёқарашида инновацион тафаккурни шакллантиришнинг ижтимоий омиллари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Андижон. 2022 й.– Б.74.
2. Бегматов А.С. Инновацион онг: моҳияти, функциялари ва шаклланиш шартлари. – Тошкент: 2017. – Б.3; Эгамбердиев А.А. Ўзбекистонда модернизация шароитида ёшларда инновацион онг шаклланишининг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Фан доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – Б.13.
3. Делия В.П. Инновационное образование, формирующее инновационное мышление. Монография. – Балашиха: ИСЭПиМ, 2005. – С. 266.
4. Пригожин А.И. Нововведения: стимулы и препятствия (Социальные проблемы инноватики). — М., 1989. – С. 271.